



QORA ORAG'AT AYRIM NAVLARINING TASNIFI, ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASH CHORALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20311330>

Jalliyev Beshim Allaqulovich

Buxoro davlat texnika universiteti

*“Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi” kafedrası
dotsenti, q.x.f.n. beshimboyjalliyev@mail.com*

Ergashov Bobur Yaxshimurotovich

Buxoro davlat texnika universiteti

1- bosqich doktoranti. bergashov@umail.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qorag'at o'simligi biologiyasi va uning respublikamizda yetishtiriladigan navlari tasnifi, mevasining kimyoviy tarkibi va qanday tuproqda, qanday sharoitda o'sishi, rivojlanishi va hosil berishi. Yerni ekishga tayyorlash, ekish muddatlari, yetishtirish agrotexnikalari haqida malumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qorag'at o'simligi, navlarni tavsifi, zararkunanda hashoratlar, parvarishlash qoidalari, ko'paytirish usullari, tuproqning ph ko'rsatgichi, sug'orish, o'g'itlash, vitaminlar, antioksidantlar, xalq tabobati, eksport, biznes.*

ХАРАКТЕРИСТИКА НЕКОТОРЫХ СОРТОВ ЧЕРНОЙ СМОРОДИНЫ, ИХ ВРЕДИТЕЛИ И МЕРЫ БОРЬБЫ С НИМИ

Жаллиев Бешим Аллакулович

*доцент кафедры «Технология хранения и переработки сельскохозяйственной
продукции», Бухарский государственный технический университет, кандидат
сельскохозяйственных наук. beshimboyjalliyev@mail.com*

Эргашов Бабур Яхшимуратович

*докторант 1-го курса Бухарского государственного технического
университета. bergashov@umail.uz*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о биологии черной смородины и характеристика ее сортов, выращиваемых в нашей республике. О химическом составе ее плодов, а также о почве и условиях ее произрастания, развития и урожайности. Также приводятся сведения о подготовке почвы к посадке, сроках посадки и агротехнике выращивания.*



Ключевые слова: черная смородина, описание сортов, вредители, правила ухода, методы размножения, рН почвы, полив, удобрение, витамины, антиоксиданты, народная медицина, экспорт, бизнес.

CHARACTERISTICS OF SOME BLACK CURRANT VARIETIES, THEIR PESTS, AND CONTROL MEASURES

Beshim Allakulovich Jalliyev

Associate Professor, Department of Agricultural Storage and Processing Technology, Bukhara State Technical University, PhD in Agricultural Sciences.

beshimboyjalliyev@mail.com

Ergashov Bobur Yakhshimurotovich

first-year doctoral student of the Bukhara State Technical University.

bergashov@umail.uz

Abstract: *This article provides information on the biology of blackcurrants and the characteristics of their varieties grown in our republic. It also covers the chemical composition of their fruits, as well as the soil and conditions for their growth, development, and yield. It also provides information on soil preparation, planting timing, and cultivation techniques.*

Keywords: *blackcurrant, variety descriptions, pests, care rules, propagation methods, soil pH, irrigation, fertilization, vitamins, antioxidants, traditional medicine, export.*

KIRISH

O'zbekiston respublikasi meva sabzavot ishlab chiqarishda ulkan imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bozorlarida uzum, sitrus va rezavor mevalar kabi mahsulotlarga talab yuqori va ushbu mahsulotlar eksport tushumining asosiy qismini tashkil etmoqda. Eksport sohasida ham boshqa ko'plab sohalarda ham bu mevalarning o'rni muhim hisoblanadi. Ularning deyarli barchasidan qandolatchilik sanoatida, qayta ishlash sohaslarida keng qo'llaniladi.

Tahlil qismi. Qorag'at o'simligi ko'p yillik butasimon o'simlik bo'lib,

O'zbekistonda qoraq'atning qora, oltinsimon, oq, qizil pensilvan kabi turlari keng tarqalgan. Qorag'at ham foydali va mazali rezavor mevalar qatoriga kirib, tarkibida ko'p miqdorda qimmatbaho vitamin va minerallar mavjud. Qorag'atning ko'plab navlari iqlimning barcha sharoitlariga bardoshli bo'lib, ular ko'pincha iqlim va yer tanlamaydi. Bu o'simlik issiqqa bardoshli bo'lib, sovuq iqlim sharoitlariga chidamli navlari ham ko'p.

Qorag'at navlarining tavsifi: *Vostochnaya (No-23-3).* Kuchli o'suvchi butasimon daraxt bo'lib, novdasi ko'kish



rangda bo'ladi. Ta'm sifati yuqori va yuqori hosildorlikka ega bo'lganligi sababli qorag'atning bu navini O'rta Osiyo respublikalarida sinov uchun ekish tavsiya etiladi. Bu nav mevasining ta'mi juda yaxshi, xushboy, sershira hisoblanadi. Tarkibi ko'plab vitaminlarga boy bo'lib, C va B guruh vitaminlarga, pektin, organik kislotalar, qand moddasiga boy hisoblanadi. Iste'mol qilish inson salomatligi uchun foydali bo'lib, immunitetni ko'taradi.

Slava Turkestana navi: O'rta bo'yli, kuchli shoxlangan novdalari ko'kimtir tusda bo'ladi. Mevasi o'rta kattalikda dumaloq shaklda qizil rangda, ammo yetilganda qora tusga kiradi.



Ta'mio'rtacha taxirroq bo'ladi. Mevasi kech pishar hisoblanib iyunning oxiri iyulning o'rtalarida pishib yetiladi. Tarkibi jihatidan Vostochnaya naviga o'xshash bo'lib vitaminlarga boy hisoblanadi. Tarkibida 80 foizgacha suv, 7,5 foizgacha qand moddalari ushlaydi. Bu nav manzarali daraxt sifatida ham ekiladi.


O'zbek slatkaya navi: Mazkur nav ertapishar navlar guruhiga kiruvchi nav bo'lib qiyg'os gullaydi. Ekilgandan so'ng ikkinchi yili hosilga kiradi. Bu nav iqlimga juda moslashuvchan bo'lib soyaki va ochiq maydonlarda ko'proq ekiladi. Qurg'oqchilikka chidamli nav hisoblanadi.



1-rasm. O'zbek slatkaya navi.

Bu o'simlik tarkibida qand, kislota, pektin moddalari va eng ko'p C va A vitaminlar uchraydi. Mevasi shirin desert hisoblanadi.

Oltinoy navi: Bu nav issiq va sovuq iqlim sharoitlariga chidamli nav bo'lib, bu nav O'zbekiston hududlarida ekish uchun moslashtirilgan. Oltinoy navi akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, Uzumchilik, vinochilik ilmiy tadqiqot institutida yaratilgan. Mevasi ertapishar nav bo'lib may oyining oxirlarida pisha boshlaydi. Meva pishish davri 16-20 kuni tashkil etadi. Mevasi shirin va limon hidli bo'lib tarkibi qand moddasi, kislata, C vitamini va karotin moddasiga boy hisoblanadi. Bu nav qandolatchilik sanoatida ham foydalaniladi. Deyarli barcha viloyatlarda ekib o'stiriladi.



2-rasm. Oltinoy navi.

Ruhshona navi: Bu nav ham Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy- tadqiqot institutida yaratilgan. Ruhshona navi issiq va sovuq iqlim sharoitlariga moslashuvchan, bardoshli, serhosil va mevasi yirik bo'lganligi sababli O'rta Osiyo respublikalarining cho'l zonalarida, O'zbekiston hududlarida va Qozog'istonning sug'oriladigan hududlari uchun istiqbolli nav hisoblanadi. Mevasi iyunning boshlarida pishib yetiladi va avgustgacha to'kilmay turadi. Mevasi juda shirin hisoblanadi. Asosan sug'orish tarmoqlari, yo'l yoqalari, ochiq maydonlarda, yosh bog'larning qator oralarida yaxshi o'sadi va yaxshi hosil beradi. Mevasining tarkibida qand moddasi, pektin, kislota, suv, va vitaminlardan C vitamini ga boy.



3- rasm. Ruxshonan avi.

Qorag'at navlarining umumiy tasnifi: Qorag'at o'simligining ko'plab navlari iqlimning barcha sharoitlariga bardoshli bo'lib ko'pincha O'zbekistonning deyarli barcha

viloyatlarida ekib o'stiriladi. O'zbekistonda ekiladigan navlari ertapishar navlar bo'lib erta hosilga kiradi. Bu navlardan qandolatchilik sanoatida keng foydalaniladi. Murabbo, sharbat,



jem kabi mahsulotlar tayyorlanadi. Bu mevalar tarkibida inson salomatligi uchun foydali bo'lgan organik moddalar, minerallar va vitaminlar mavjud. Ko'pincha bu mevalarning sharbati shifobaxsh hamda parvezbop ozuqa hisoblanib, ular yordamida kasallik qo'zg'atuvchi mikroblar faoliyatini to'xtatish va ba'zi kasalliklarni oldini olish, davolash xususiyatiga ega hisoblanadi.

Qora qorag'at o'simligi navlariga zarar keltiruvchi zararkunandalar va ularga qarshi kurash choralari: Qora qorag'atning hozirgacha yaratilgan ko'plab navlari zararkunandalar ta'siriga chidamli va yaxshi hosildor navlardir. Turli zararli hasharotlar va zararkunandalarga qarshi immuniteti kuchli hisoblanadi. Lekin ba'zi hollarda tomorqalar va sug'oriladigan maydonlarda ekiladigan turlariga zararkunandalar zarar yetkazishi mumkin. Bularga asosan o'rgimchakkana, qorag'at shisha kapalagi, qorag'at kurtak kanasi, qalqonli bit kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Bunday zararkunandalar o'simlikning turli qismlari bilan oziqlanadi. Barglarga, ba'zilar novda va poyalariga zarar keltirib o'simliklarni o'sishini sekinlashtiradi yoki qurib qolishiga sabab bo'ladi. Bunday zararkunandalarga qarshi kurashishda asosan o'simlik ekiladigan maydonning o'tmishi va holari o'rganiladi, dala va uning atroflari begona o'tlardan tozalanib, zarur bo'lganda kimyoviy kimyoviy preparatlar qo'llaniladi va

yerga organik hamda mineral o'g'itlar kiritilib, yer ekishga tayyor bo'lgach nihollar o'tkaziladi.

Asosiy qism. Qorag'at o'simligi navlari ko'pincha barchasi qalamchasidan ko'paytiriladi. Pekinni ekishda sifatli navini tanlash, ekiladigan hudud iqlimiga mos navlarni tanlab so'ng ekish ishlari olib borilishi kerak. Shunda o'simlik zararkunandalar va hasharotlardan zararlanmagan holda yaxshi o'sib yaxshi hosil beradi. O'simlik o'sishini turli davrlariga har xil moddalar beriladi ozuqa sifatida. Ekin shoxlari zararlangan bo'lsa avvalo shoxlari kesib tashlab yoqib yuborish tavsiya etiladi shunga zararkunandalar boshqa novdalariga zarar yetkaza olmaydi. Doimiy ravishda buta ekilgan yer atrofi yumshatilib begona o'tlardan toza holda tutiladi. Kerakli chora tadbirlar o'z vaqtida olib borilsa ekinimiz yaxshi o'sib rivojlanadi va kasalliklarga chalinmaydi.

Xulosa qilib aytganda qorag'at o'simligining zararkunandalaridan samarali himoya qilishda kompleks yondashuv talab qilinadi. Vaxtida nazorat, tuproq holatini tekshirish, sifatli nav tanlash, begona o'tlardan tozalash, va inson nazoratida bo'lgan holatda parvarish qilinsa ekinlar yaxshi o'sib rivojlanadi. Seleksioner olimlar tomonidan yaratilgan qorag'at navlari barcha iqlim shoritlariga chidamli bo'lib ko'plab navlar iqlim tanlamaydi. Ular barcha zararkunandalarga qarshi immuniteti kuchli hisoblanadi. Hozirda yurtimizning barcha viloyatlarida ochiq yerlarda, yo'l



yoqalarida manzarali daraxt sifatida, bog'larda bu o'simlik yaxshi hosil sug'oriladigan maydonlarda va maxsus bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Р.М. “Тошкент вилояти шароитида Олтинсимон қорағат навларини ўрганиш”, Республика илмий-амалий анжумани. Тошкент 2017. (II/IX) 11-14 б.
2. Арсеньева Т.В. Особенности биологии и селекционная ценность красной смородины в условиях Северо-Запада Нечерноземья: 06.01.05– Селекция и семеноводство: автореф. дис. на соиск. учен. степ. канд. с.-х. наук / Татьяна Владимировна Арсеньева. – Санкт-Петербург, 1992. – 20 с.
3. Jabborova Ch.D., Asadova R.A., Jalliyev B.A. Golubika o'simligining biologiyasi va shifobaxshlik xususiyatlari. “World of science” republican scientific journal collection of materials 25th April 2025 Volume-8, Issue-4. Pages-313—316
4. Абдуллаев Р.М., Қосимов А.А., Шодиев С.И. “ Олтинсимон қорағат навларидан турли муддатларда кўчат етиштириш усуллари” Агро Илм журнали, 2019 – №1. 31
5. F.O'. Jo'rayev, Sh.B. Shodiyev, G'.F.Hamroyev, A.E.Sharipov, I.F.Hamroyev. The structural scheme of the gear sprocket in plowing with a double-wound plug, the process of technological work and the results of laboratory testing // American Journal of Technology Advancement Vol.2, No.8 (Aug, 2025), – B. 30-35.
6. F.O'. Jo'rayev, Sh.B. Shodiyev, G'.F.Hamroyev, A.E.Sharipov, I.F.Hamroyev. Biosolvent preparatini shudgor vaqtida tuproqqa aralashiruvchi texnikaning laboratoriya sinovlarini o'tkazish // ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference 2025. y. – B. 154-159.
7. Juraev, F.U., Shodiyev, Sh.B., Khamroev, G.F., Juraev, J.T., Khamroev, I.F. Mathematical modeling formation of wole drainage under soil deformations E3S Web of Conferences, 2023, 419, 02005.
8. Abdullaev R.M., Abdullaeva Kh.R., Kosimov A.A. “Studying the drought-resistance of berry plants”, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 04, 2020 y, PP-3859-387.